



OLIV TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH VAZIFALARI

Xushnazarova Ma'mura Nodirovna

Qo'qon davlat universiteti dotsenti, Pedagogika fanlari doktori (DSc)

Isaqova Laura Turlibekovna

A.Kyatbekova nomidagi xalqlar do'stligi universiteti, pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularni yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va innovatsion metodlar bilan qurollantirish orqali kasbiy-ijodiy faolligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, kasbiy sifat, innovatsion metod, kontseptsiya, ta'limning interfaol usullari, innovatsion metod, kasbiy-ijodiy faollik, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, intuitsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения профессионально-творческой активности будущих педагогов-воспитателей в высших учебных заведениях. Основное внимание уделяется их подготовке к профессиональной деятельности путем вооружения современными педагогическими и информационными технологиями, интерактивными методами обучения и инновационными методиками.

Ключевые слова: технология, профессиональное качество, инновационный метод, концепция, интерактивные методы обучения, профессионально-творческая активность, организаторские способности, управленческие способности, интуиция.

Abstract: This article discusses the issues of increasing the professional and creative activity of future educators in higher education institutions. It focuses on preparing them for professional activities by equipping them with new pedagogical and information technologies, interactive teaching methods, and innovative techniques.

Keywords: technology, professional quality, innovative method, concept, interactive teaching methods, professional-creative activity, organizational skills, managerial skills, intuition.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos malakalar shakllantirish, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash ta'lim mazmuniga bevosita bog'liqdir. Xususan, amaliy fanlarni o'qitish jarayoni talabning kasbiy shakllanishida asosiy bosqich bo'lib, nazariy bilimlarni real vaziyatlarda qo'llay olishni ta'minlaydi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil), “Professional ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”, Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi kabi normativ hujjatlarda aynan kasbiy kompetensiya, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonlari va ishlab chiqarish bilan hamkorlikni kuchaytirish talablari belgilangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish beruvchilar talab qiladigan kompetensiyalar — muammoli vaziyatni tahlil qilish, texnologiyalarni amaliy qo‘llay bilish, jamoada ishlash, texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, innovatsion fikrlash — talabalarni ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirish dolzarb masala sifatida qaraladi.

Qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini yaratish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.

Yangi kasbiy sifatga ega bo‘lgan pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash uchun ularni yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, ta’limning interfaol usullari va innovatsion metodlar bilan qurollantirish orqali kasbiy-ijodiy faolligini oshirish zarur. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar kasbiy bilimlarni egallaganlik darajalari bilan o‘zaro farqlanadilar. Ularning bir qismi yangi pedagogik muhit, vaziyatga tez moslashsa, ayrimlari pedagogik bilimlarni egallash uchun ko‘p vaqt sarflaydilar.

Innovatsion metodlarni puxta o‘zlashtirgan bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar bolalar uchun samarali ta’lim-tarbiya vaziyatlarini yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun ularda har bir tarbiyalanuvchiga alohida shaxs sifatida yondashish ko‘nikmasi shakllangan bo‘lishi lozim. Yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan pedagogik vaziyatlarda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarning o‘z fikr va g‘oyalarini bayon qilishga yo‘naltirilgan harakatlari rag‘batlantiriladi;

- dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun professor-o‘qituvchilarga qulay imkoniyat yaratiladi;

- professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatning ishonch, hamkorlik va o‘zaro hurmat asosida bo‘lishi ta‘minlanadi;

- professor-o‘qituvchilar bilan talabalar sub‘ekt-sub‘ekt munosabatlari darajasida fikr almashadilar;

- dars jarayonida talabalarning mustaqil ishlari professor-o‘qituvchilar rahbarligida tahlil qilinadi, to‘ldiriladi, samarali ishlagan talabalar faoliyati rag‘batlantiriladi;

- talabalarni ommaviy tarzda mustaqil bilim olishga jalb qiladigan pedagogik vaziyatlar tashkil etiladi va h.

Innovatsion metodlarni qo‘llaydigan professor-o‘qituvchilar darsda qulay pedagogik vaziyat yaratish maqsadida kichik guruhlar tashkil etadilar. Chunonchi:

- auditoriyani ta’lim maqsadlari va mazmuniga mos tarzda jihozlaydilar, ta’lim-tarbiya faoliyati samaradorligini ta’minlash uchun talabalarni kichik-kichik guruhlarga bo’ladilar;

- qulay ta’lim-tarbiya vaziyati va ko’rgazmali vositalar orqali talabalarning ta’lim-tarbiya faoliyatini jadallashtirishga ko’maklashadilar;

- talabalarning o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qiladilar;

- innovatsion metodlar bilan ishlaydigan professor-o’qituvchilar dars jarayonini talabalarning faolligi va tanqidiy fikrlashini rag’batlantirgan holda rejalashtiradilar va tashkil etadilar.

O’quv jarayonini loyihalashda professor-o’qituvchilar quyidagilarga rioya qilishlari kerak:

- o’quv dasturida ko’rsatilgan mavzularni o’rganishda har bir talabani ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb qiladigan va tanqidiy fikrlashga rag’batlantiradigan o’qitishning ilg’or texnologiyalaridan foydalanish;

- ta’lim jarayonida professor-o’qituvchilar hamda talabalar ijodiy hamkorligiga erishish;

- ta’lim jarayonining amalga oshishi va natijalarini bashorat qilish;

- ta’lim jarayoni oldiga qo’yilgan maqsadga erishish uchun turli innovatsion metodlardan foydalanish;

- mustaqil bilim olish jarayonida turli ilmiy manbalardan samarali foydalanish kabilar.

Ushbu manbalar ta’lim-tarbiya dasturini boyitish, mavzularni talabalarga tushunarli va turlicha talqin etishga ko’maklashadi. Shuningdek, auditoriyadan tashqari vaziyatlarda talabalarni muayyan mavzu doirasida izlanishga undaydigan qo’shimcha manbalar bilan ishlashga o’rgatadilar.

Innovatsion metodlar bilan ishlaydigan professor-o’qituvchilar talabalar bilimni baholashga ham alohida ehtibor qaratadilar. Bunda asosiy maqsad - ta’lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondasha olish va talabalarni bilim olishga rag’batlantirishga qaratiladi.

Bo’lajak pedagog-tarbiyachilar zamonaviy bilimlarni egallashlari uchun oliy ta’lim jarayonida ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Bo’lajak pedagog-tarbiyachilar maktabgacha ta’lim jarayonini yaxlit hodisa sifatida tasavvur qila olganidagina, kasbiy jihatdan yetarlicha tayyorgarlikka ega bo’lishi mumkin. Bo’lajak pedagog-tarbiyachilar har bir pedagogik holatni chuqur tahlil qila olganidagina, maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshiriladigan ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlash ko’nikmasiga ega bo’ladi.

Pedagog-tarbiyachilar mehnati tarbiyalanuvchilarni aqliy, ma’naviy-jismoniy rivojlantirish, ularni ijtimoiylashtirishga qaratilgan pedagogik harakatlar majmuidir.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish bugungi kunga kelib ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- an’anaviy o’qitishda professor-o’qituvchilar tomonidan qilinadigan ma’ruzaga tayaniladi;

- axborotlar hajmining ko’payib borishi, ulardan foylanish uchun vaqtning cheklanganligi, ularni saralash va tizimlashtirishning murakkablashuvi ham yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llashni taqozo etadi;

- yangi axborot oqimlarining to’xtovsiz kirib kelishi va ta’lim-tarbiya jarayonida ularni o’zlashtirish ehtiyojining mavjudligi ham yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Shuning uchun ham, maktabgacha ta’limni rivojlantirish, yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash sohasidagi me’yoriy-huquqiy asoslarda maktabgacha ta’lim tizimini texnologiyalashtirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni yangi o’quv-uslubiy majmualar, ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan to’liq ta’minlanishi zaruriyat darajasida qayd etilmoqda.

Oliy pedagogik ta’lim tizimida zamonaviy maktabgacha ta’lim kontseptsiyasiga muvofiq tarzda, talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirish orqali bo’lajak pedagog-tarbiyachilarni o’z-o’zini rivojlantirishga erishish lozim. Bunday vaziyatda bo’lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayonini texnologiyalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasining nazariy asoslari rivojlantirilmoqda. Masalan, O’.Tolipov, M.Ochilov, N.Saidahmedov, I.Zokirov, A.F.Talizina, T.Sakamoto, J.Xartlilar pedagogik texnologiya tushunchasini tavsiflashda aniq nazariy yondashuvlardan foydalanganlar. Pedagogik texnologiya tushunchasi serqirra tushuncha bo’lib, unga turli tomondan yondashish taqozo qilinmoqda. Ko’rinib turibdiki, pedagogik texnologiya yoki o’qitish texnologiyasi pedagogika fanida turli tomondan yondashilgan holda talqin etilmoqda.

Pedagogik texnologiya pedagoglarga ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Masalan:

- maktabgacha ta’lim jarayoni natijalarining kafolatlanganligi;
- pedagogik texnologiyalarning pedagogik jarayonlarni samarali tarzda tashkil etish va boshqarish imkoniyatiga egaligi;
- maktabgacha ta’lim jarayonini yangi nazariy-pedagogik asoslarga tayangan holda tashkil etish uchun qulayligi;
- tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini oldindan bashoratlash va loyihalash uchun qulay sharoit yarata olishi;
- maktabgacha ta’lim jarayonida yangi axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish uchun qulayligi kabilar.

Pedagogik texnologiya zamonaviy pedagogik tafakkur ifodasi sifatida namoyon bo’ladi. U tarbiyalanuvchilar faoliyatini tubdan takomillashtirish, ta’lim natijasini kafolatlash, ta’lim tashkilotining moddiy-texnik jihatdan ta’minlash uchun zarur vaziyatni vujudga keltiradi. Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonining ob’ektiv qonuniyatlarini yuqori darajadagi aniqlikda aks ettiradigan, muayyan ta’lim-tarbiya sharoitida kafolatlangan natijalarning ta’lim maqsadlariga mos kelishini ta’minlaydigan faoliyatdir.

Ma’lumki, pedagog-tarbiyachilarning asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashdan iborat. SHunga ko’ra, pedagog-tarbiyachilarga qo’yiladigan talablar ham ularning kasbiy faoliyati ifodasi

sifatida belgilab beriladi. Pedagog-tarbiyachilar o’zlarining kasbiy vazifalarini qanchalik chuqur idrok eta olsalar, bolalarni rivojlantirishning interfaol xarakterdagi savol-javob, dialog usullarini qo’llab, tarbiyalanuvchilarga ko’proq mustaqillik, tashabbuskorlik, erkinlik beradilar. Tajribali pedagog-tarbiyachilar maktabgacha ta’lim jarayonini samarali boshqara oladilar.

Bo’lajak pedagog-tarbiyachilar kasbiy mahoratga ega bo’lishlari uchun pedagogik bilimlar bilan bir qatorda innovatsion ta’lim texnologiyalarini ham puxta o’zlashtirishlari kerak. SHu bilan bir qatorda ular maktabgacha ta’limning qonuniyatlari, printsiplarini ham yaxshi bilishlari, ulardan o’z o’rnida samarali foydalana olish tajribasiga ega bo’lishlari lozim. Bo’lajak pedagog-tarbiyachilarning maktabgacha ta’lim jarayonida ilg’or pedagogik texnologiyalarni qo’llay olishi, ularni mashg’ulot mazmunidan kelib chiqqan holda saralash tajribasini o’zlashtigan bo’lishlari muhim kasbiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi 2019 yil 16 dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonuni.
2. Djuraev R.X., Turg’unov S.T. Ta’lim menejmenti: O’quv qo’llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
3. Zvereva V.I. Organizatsionno-pedagogicheskaya deyatelg’nostg’ rukovoditelya shkolq. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Novaya shkola, 1997. – 320s.
4. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2006. 73 b.
5. Kalinin I.V. Strategiya podbora kadrov kak stilevaya xarakteristika upravlencheskoy deyatelg’nosti rukovoditelya: Diss. ... kand. psixol. nauk. – M., 1996. – S. 33-36.
6. Region: Upravlenie obrazovaniem, teoriya i praktika / Pod red. P.I. Tretg’yakova. – M.: Novaya shkola, 2001. – 880 s.
7. Sattarov E.N., Alimov X.N. Boshqaruv muloqoti. – Toshkent: Akademiya, 2004. – 70 b.
8. Sekun V.I. Formirovanie individualg’nx strategiy organizatorskoy deyatelg’nosti rukovoditelya // Sotsialg’no-psixologicheskie metodq prakticheskoy rabotq v kollektive: diagnostika i vozdeystviy. – M., 1990. – S.180-186.
9. Shodmonov Q.O. Oliy o’quv yurtlari kasb ta’limi yo’nalishi talabalarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash: Ped.f.n. ...diss. – Toshkent, 2008. – 153 b.